


## ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2023- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1 668,2 mlrd so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,0 % ni tashkil etdi.

Jami investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 16,7 % ni yoki 278,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 390,2 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 95,2 %i o'zlashtirildi.



### Markazlashgan investitsiyalar

# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Moliyalashtirish manbalari**

**Markazlashgan  
moliyalashtirish manbalari  
hisobidan investitsiyalar  
tarkibi, % da**

**O'tgan yilning mos  
davriga nisbatan, % da**

**Respublika byudjeti**

**7,6 %**

**4,4 m.**

**Suv ta'minoti va kanalizatsiya  
tizimlarini rivojlantirish  
jamg'armasi**

**0,6 %**

**169,2 %**

**Tiklanish va taraqqiyot  
jamg'armasi**

**0,0 %**

**0,0 %**

**O'zbekiston Respublikasi  
kafolati ostidagi xorijiy  
kreditlar**

**8,4 %**

**4,5 m.**

## **Markazlashmagan investitsiyalar**

**Moliyalashtirish manbalari**

**Markazlashmagan  
moliyalashtirish manbalari  
hisobidan investitsiyalar  
tarkibi, % da**

**O'tgan yilning mos  
davriga nisbatan, % da**

**Korxona mablag'i**

**19,9 %**

**75,1 %**

**Aholi mablag'lari**

**19,1 %**

**102,0 %**

**Boshqa xorijiy investitsiya va  
kafolatlanmagan kreditlar**

**42,2 %**

**139,2 %**

**Shu jumladan: to'g'ridan-to'g'ri  
xorijiy investitsiyalar**

**21,4%**

**107,0%**

**Tijorat banklari kreditlari va  
boshqa qarzlar**

**2,1 %**

**17,2 %**

2023- yilning yanvar-mart oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 332,2 mlrd so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,9 %ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,1 %i yoki 318,9 mlrd so‘mi o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 357,8 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 139,2 %ni yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 42,2 %ni tashkil etdi.

### Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd so‘m

Respublika byudjeti-127,5 mlrd so‘m



Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi-9,8 mlrd so‘m



Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi-0,0 mlrd so‘m



O‘z.Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar-140,8 mlrd so‘m



Korxona mablag‘lari-332,2mlrd so‘m



Aholi mablag‘lari-318,9 mlrd so‘m



To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar-704,8 mlrd so‘m



Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari-34,2 mlrd so‘m



Shuningdek, tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 34,2 mlrd so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 2,1 %ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 17,2 %ni tashkil qildi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 140,8 mlrd so'm, 8,4 % va 4,5 m. ga ko'paydi), boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar 704,8 mlrd so'm (42,2 % va 139,2 % punktga ko'paydi), Respublika byudjeti 127,5 mlrd so'm (7,6 % va 4,4 m. ga ko'paydi), suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi- 9,8 mlrd so'm (0,6 % va 169,2 % punktga ko'paydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

**2023- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**

Shahar va tumanlar	hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati	viloyatdagи ulushi
Urganch shahri	451,5 mlrd so'm	127,7 %	27,0 %
Xiva shahri	50,6 mlrd so'm	116,7 %	3,0 %
Bog'ot tumani	40,1 mlrd so'm	64,2 %	2,4
Gurlan tumani	59,4 mlrd so'm	115,5 %	3,6 %
Qo'shko'pir tumani	242,8 mlrd so'm	142,4 %	14,6 %
Urganch tumani	142,5 mlrd so'm	235,6 %	8,5 %
Hazorasp tumani	55,4 mlrd so'm	99,0 %	3,3 %

## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Shahar va tumanlar

hajmi,  
mlrd so'm

o'sish sur'ati

viloyatdagi  
ulushi

Tuproqqa'a tumani

27,0  
mlrd so'm

112,5 %

1,6 %

Xonqa tumani

91,4  
mlrd so'm

116,7 %

5,5 %

Xiva tumani

176,1  
mlrd so'm

89,3 %

10,6 %

Shovot tumani

146,8  
mlrd so'm

81,1 %

8,8 %

Yangiariq tumani

106,3  
mlrd so'm

326,0 %

6,4 %


Yangibozor tumani

78,3  
mlrd so'm

113,4 %


4,7 %

### 2023- yil yanvar- mart oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Qo'shko'pir tumanida – 142,4 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 242,8 mlrd so'm), Urganch shahrida – 127,7 % (451,5 mlrd so'm), Xiva tumanida – 5,3 m. oshgan (176,1 mlrd so'm), Urganch tumanida – 235,6 % (142,5 mlrd so'm).

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga  
o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyat bo'yicha yuqori ulushi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Urganch shahrida – 127,7 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 451,5 mlrd so'm), Xiva tumanida 534,5 % (176,1 mlrd so'm), Qo'shko'pir tumanida 142,4 % (242,8 mlrd so'm).


**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar**



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2023- yilning yanvar-martida 850,4 ming so'm yoki 106,1 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib, 3004,0 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,9 %ni tashkil etdi. Xiva tumanida 1157,3 ming so'm (yoki 526,4 %) va Qo'shko'pir tumanida 1354,7 ming so'm (yoki 140,1 %) darajada qayd etildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi,( %da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 52,0 %, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari – 44,6 %, boshqa xarajatlarning ulushi 3,4 %ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 237,8 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 14,3 %, ishlab chiqarish sanoati – 514,5 mlrd so'm (30,8 %), qurilish – 79,5 mlrd so'm (yoki 4,8 %), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash – 34,7 mlrd so'm (yoki 2,1 %), ta'lim – 25,0 mlrd so'm (yoki 1,5 %) va boshqa faoliyat turlari – 388,4 mlrd so'm (yoki 23,3 %).

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2023- yilning yanvar-mart oylarida 845,6 mlrd so'm o'zlashtirilib (dollar ekvivalentida 75,2 mln AQSH dollari), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 176,6 %ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiyligida xorijiy investitsiyalar 357,8 mlrd so'mni tashkil etdi, shuningdek, 487,8 mlrd so'm xorijiy kreditlarga to'g'ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiyligida xorijiy investitsiyalar 357,8 mlrd so'mni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 0,5 mlrd so'mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar – 347,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Urganch shahrida – 22,0 % Yangiariq tumaniga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 9,6 %ni ta'minladi, Qo'shko'pir tumanida -11,9 %, darajada kuzatildi.





## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Xorijiy investitsiya va kreditlar


	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, mlrd so'm</i>		<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, nisbatan %da</i>	
	<i>Jami:</i>	<i>Shu jumladan, kreditlar:</i>	<i>Jamiga:</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>845,6</b>	<b>487,8</b>	<b>100,0</b>	<b>176,6</b>

*shahar va tumanlar:*

<b>Urganch sh.</b>	186,2	54,8	22,0	38,9
<b>Xiva sh.</b>	18,1	6,3	2,1	3,8
<b>Bog'ot</b>	3,3	3,3	0,4	0,7
<b>Gurlan</b>	24,0	24,0	2,8	5,0
<b>Qo'shko'pir</b>	100,7	100,7	11,9	21,0
<b>Urganch</b>	71,8	71,8	8,5	15,0
<b>Hazorasp</b>	15,8	15,8	1,9	3,3
<b>Tuproqqa'l'a</b>	3,0	3,0	0,4	0,6
<b>Xonqa</b>	50,5	50,5	6,0	10,6
<b>Xiva</b>	148,3	148,3	17,5	31,0
<b>Shovot</b>	108,1	0,0	12,8	22,6
<b>Yangiariq</b>	81,1	9,3	9,6	16,9
<b>Yangibozor</b>	34,7	0,0	4,1	7,3

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 176,6 %ni tashkil qildi.

**Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (*mlrd so'm*)**



Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiyligi hajmiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 8,4 % yoki 140,8 mlrd so'mni, xorijiy investitsiya va kreditlar – 42,2 % yoki 845,6 mlrd so'mni, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya 357,8 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: G.Xaitbayeva  
Telefon: (62) 224-65-22**